

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563

eISSN 2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 10, issue 12 (2023)

MILLIY AN'ANALAR ASOSIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOIY-MA'NAVIY MUNOSABATLARDA O'Z-O'ZINI BOSHQARISHGA O'RGATISH

D.Q.Oxunova

FDU o'qituvchi

oxunova2302@gmail.com tel:+998901602032

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy an'analarning shaxs hayotidagi o'rni va ahamiyati, milliy an'analar asosida o'spirinlar va o'smir yoshdagi o'quvchilarni tarbiyalash, ta'lim berish, ularni o'z-o'zini boshqarishga o'rgatishning pedagogik tomonlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Hulq atvor tasavvurlar, o'sprinlik, o'smirlik, o'z-o'zini boshqarish, ma'naviyat, milly qadriyat, tarbiya.

ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ САМОУПРАВЛЕНИЮ В СОЦИАЛЬНО ДУХОВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ

Аннотация: В данной статье раскрываются роль и значение национальных традиций в жизни человека, педагогические аспекты воспитания, воспитания и обучения подростков и подростков на основе национальных традиций, обучения их самостоятельному управлению.

Ключевые слова: Характер, воображение, юношеский возраст, юношеский возраст, самообладание, духовность, национальная ценность, воспитание.

TEACHING STUDENTS TO SELF-MANAGEMENT IN SOCIAL-SPIRITUAL RELATIONS ON THE BASIS OF NATIONAL TRADITIONS

Abstract: This article reveals the role and significance of national traditions in human life, pedagogical aspects of education, education and training of adolescents and adolescents based on national traditions, teaching them self-government.

Keywords: Character, imagination, adolescence, adolescence, self-control, spirituality, national value, upbringing.

Har bir xalqning etnik xususiyatlari milliy xarakterida, qobiliyatlari uning ijtimoiy tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanib kelayotgan barqaror hislatlarida mavjud bo'ladi. Xalqning ruhiy holati uning milliy madaniyatida, tilida, ya'ni adabiyotida, me'morchiligidagi, qo'shiq, musiqa, kiyinish va urf-odatlarda aks etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot xalq madaniyatining umumiy mazmunini o'zgartirsa ham, ajdodlar yaratgan ma'naviyatdagi ilg'or mazmun va shakllarini, xalqning milliy va ruhiy xarakterini ifodalovchi va bashariyatga xizmat qiladigan tomonlarini saqlab qoladi. Ana shularga ko'ra an'analarni avlodlar birligi va bolanishini ifoda etuvchi vosita sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

Shaxs hulq atvor tasavvurlarning shakllanishi uning butun hayoti davomida o'zgarib, rivojlanib boraveradi. Lekin hulq atvor qiyofasining asosiy qirralari ularni oila a'zolarining faol ishtiroklari bilan, atrofdagi omillarnig ta'siri va omillarga shaxsnинг munosabati natijasida xulq-atvorning yangi hislatlari paydo bo'la bordi. Ommaviy madaniyatning kirib kelishi milliy an'analaramiz, odatlarimiz shuningdek yoshlarning axloqiy fazilatlarining o'zgarishiga ham sabab bo'ldi.

Odatda har bir shaxsnинг hulq atvor xususiyati va ularga bog'liq tasavvurlari juda xilm-xil bo'lib, bular uning irodaviy va ahloqiy sifatlariga uzviy bog'liqdir. Bu hislatlarga iroda kuchi,

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563

eISSN 2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 10, issue 12 (2023)

mustaqillik, qat’iylik, chidamlilik, matonat, o’zini tuta bilish kabilar kiradi. Xulq-atvorning ahloqiy-hulq atvor sifatlari—intizomlilik, mas’uliyatlilik, muruvvatlilik, samimiylilik, haqqoniylilik, insonpavvarlik, kamtarlik, kengfe’llilik, tortinchoqlik, kelishuvchanlik, mehnatsevarlik kabilardan iboratdir.

Insonda ma’lum bir hulq atvor hislatning paydo bo‘lishi va shakllanishi ma’lum bir qadriyatga moslanishi (yo‘nalishi), ularga taxminiy baho berishida o‘z aksini topadi. Subyekt ma’lum bir hislatni ongida loyihalashtirib olganidagina qadriyatga yo‘naltirish haqida gap ketishi mumkin. Qadriyatga nisbatan yo‘naltirishning shakllanishi ehtiyoj hamda faoliyatga moslashish orqali faollashadi. Ma’naviyat to‘g‘risidagi mulohaza yuritiladigan odamlarning xatti-harakatlariga e’tibor beriladi. Xuddi shu boisdan ma’naviyatning mohiyati xatti-harakatlarda to‘la aks etadi.

Ilk o‘sirinning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, oila, mahalla va ta’lim jarayonining talablari darajasi bilan u erishgan psixik kamolat o‘rtasidagi ziddiyatdan iborat bo‘lib, ushbu qarama-qarshiliklar uni hulq atvor tasavvurlarining tezkor o‘sishi orqali bartiraf qilinadi.

Tasavvurlar shakllanishining eng jadal darajasi ilk o‘sirinlik yosh davriga to‘g‘ri keladi. Unda borliq haqida bilimlar tizimi shakllangan bo‘lib, muhim hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa va obyektlar haqida aniq tasavvurlar mavjud bo‘ladi. Bu tizimda shaxs uchun o‘ta muhim elementlar bo‘lib, shaxsning boshqa tasavvurlari ana shu muhim elementlar atrofida uyg‘unlashib boradi. Bu daraja tasavvurlarning obyektivligi bilan xarakterlanib, ular shakllanishi jihatidan ijtimoiy tabiatga ega bo‘ladi. Xuddi shu ma’noda hulq atvor tasavvurlar yuqori darajada shakllangan ijtimoiy tasavvurlardir.

Hulq atvor tasavvurlar – shaxsning shunday tasavvurlari tizimiki, ular vositasida shaxs «ma’naviyat» tushunchasi atrofdagi barcha hodisa va obyektlarni tushunadi va ularga nisbatan ma’lum munosabatni shakllantirgan bo‘ladi. Ular ijtimoiy bo‘lgani uchun ham «ma’naviyat»ning deyarli barcha sohalarini: Vatan taqdiri bilan o‘zini bog‘lash, o‘z Vatani tarixi bilan faxrlana olish, fan, din, diniy va milliy qadriyatlar, an’analar, insoniyat yaratgan hulq atvor durdonalar haqidagi tasavvurlarni o‘z ichiga oladi.

Hulq atvor tasavvurlar ijtimoiy tasavvurlarning bir tarmog‘i bo‘lib, u qotib qolgan ma’lum kognitiv narsalar emas, balki ular doimiy rivojlanishda, harakatda va taraqqiyotda bo‘ladi. Uning dastlabki bosqichi idrok qilish bosqichi bo‘lib, unda bevosita ongda aks etadigan ma’lumotlar qabul qilinishi, ular anglanganlik va shaxs uchun zarurat nuqtai nazaridan saralanishi ro‘y beradi. Undan so‘ng ikkinchi bosqich – assotsiativ bog‘lanishlar bosqichi ro‘y beradi, ya’ni bunda ongdagi yangi xabarlar eskilar bilan solishtirilib, assotsiativ va hulq atvor bog‘lanishlar o‘rgatiladi. Yuqorida ikkinchi bosqichning umumiyl xususiyati umumlashtirish-generalizatsiyadir. Keyingi bosqichlar ko‘proq tafakkur va tushunchalar sohasiga taaluqli bo‘lib, unda har bir ma’lumot yoki xabar differensial holda individ uchun ahamiyatlilik nuqtai nazaridan ajratiladi va shu asosda ma’lum ustyanovkalar shaklida shaxs xulq-atvori yo‘nalishini belgilaydi. Adabiyotlar tahlili va o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda o‘sirinlarning aksariyat qismida o‘z-o‘zini boshqarishga nisbatan passivlik kuzatilib, bu holat ularning o‘z-o‘ziga beradigan baholari hamda individual ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan ham bog‘liq degan fikrga kelish mumkin. Bu jarayonni o‘rganib chiqish orqali biz quyidagi xulosalarga keldik:

- O‘sirinlik davridagi eng asosiy ehtiyojlardan biri bo‘lgan qaramlikdan ozod bo‘lish ehtiyojini tushunmaslik, o‘sirinlarning mustaqilligini cheklab qo‘yish o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonch hissining susayishiga olib keladi;
- o‘sirinlarda o‘z-o‘zini ta’lim muassasalarida boshqara olish, individual va intellektual qobiliyatlarini mustaqil takomillashtirib borish ko‘nikmalarini shakllantirishda pedagoglarning o‘rni juda katta;

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563

eISSN 2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 10, issue 12 (2023)

- o'spirin o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish va ularning kelgusida mustaqil aqliy qobiliyatlarini o'stirib borishda, ayni jarayonda ularning o'z-o'zini boshqarishga o'rgatishda ularning mustaqil ijodiy ishlarini ro'yobga chiqarishiga ko'maklashish katta ahamiyatga ega;
 - o'spirinlarning o'z-o'zini ahloqan idora qilishga o'rgatishda oila-mahalla hamkorligining o'mni beqiyos o'rinni tutadi;
 - ota-onalar tamonidan o'spirinlarning faqat xato va kamchiliklariga urg'u berilishi, atrofdagilar tomonidan uning ko'p tanqid qilinishi keyinchalik unda o'z-o'zini ijtimoiy munosabatlarda boshqarish ko'nikmalarining to'g'ri shakllanmasligiga zamin yaratadi;
 - insонning jamoa oldida so'zga chiga olmaslik, begonalar bilan suhbatlashishdan qo'rqish, odamlardan qochish, o'ziga ishonmaslik, ta'lim jarayonida o'z qobiliyat va imkoniyatlarini to'la namoyon qila olmaslik ko'rinishlarida namoyon bo'ladi, bu holat o'spirinlarda o'z bilimidan shubha qilish, olayotgan bahosiga mos bilinga ega emaslik va buni o'qituvchi hamda boshqa o'quvchilar tomonidan fosh etilishidan qo'rqish hissini vujudga keltiradi.
- Xulosa qilib aytganda o'spirin yoshlarni milliy ananalar asosida tarbiyalash va o'z-o'zini boshqarishga o'rgatish oldimizda turgan dolzarb masalalardir. Yoshlarni ommaviy madaniyatning salbiy illatlaridan saqlashning eng samarali usuli ham milliyligimizga ko'proq e'tibor berishdir deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Охунова, Д. К., & Шоюсупова, О. А. (2016). PEDAGOGICAL BASES OF HARMONIOUS EDUCATION OF STUDENTS. Ученый XXI века, (5-1 (18)), 42-45.
2. Oxunova, D. (2022). О 'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Academic research in educational sciences, 3(2), 870-876.
3. Kahhorjonovna, O. D. (2022). Approaches to Preparing Future Teachers for the Organization of Cognitive Processes in General Secondary Schools. Miasto Przyszlosci, 29, 6-7.
4. Kahhorjonovna, O. D. (2022). Future Teachers' Specific Characteristics of Development of Cognitive Acceptance of Professional Knowledge. Miasto Przyszlosci, 29, 1-2.
5. Охунова, Д. К., & Шоюсупова, О. А. (2016). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГАРМОНИЧНОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ. Ученый XXI века, 45.
6. Жумабоев, А. Г., Базаров, А. А., & Полвонов, Х. М. (2020). Каталитик риформинг курилмаларидан агфу-этан блоки қурилмасига "қуруқ газ" узатишида газ таркибидаги суюқ углеводородларни ажратиб олиш схемасини тадбиқ этиш. Science and Education, 1(3), 212-216.
7. Xayrullo o'g'li, M. A., & Madaminovich, P. X. (2023). TUZLI TIZIMLARDA ERUVCHANLIK. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 1(10), 183-187.
8. Madaminovich, P. K. (2023). TECHNOLOGICAL CALCULATIONS FOR THE PRODUCTION OF LIQUID CHLORINE CALCIUM DEFOLIANT. Journal of Modern Educational Achievements, 5(5), 363-373.
9. Madaminovich, P. X., & Hamroqulovich, M. M. (2022). PROCESSING OF FISH AND FISH PRODUCTS. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 212-215.
10. Xayrullo o'g'li, M. A., & Madaminovich, P. X. (2022, April). TARKIBIDA KARBAMID, KALSIYNING XLORAT VA XLORIDLARI TUTGAN SUVLI TIZIMLARDA ERUVCHANLIKNI O 'RGANISH. In E Conference Zone (pp. 153-156).